

# Malayziyaning Al-Buxoriy xalqaro Universiteti tomonidan o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarida tahsil olish uchun e'lon qilingan stipendiya tanlovi

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2021-yil 17-iyuldagi 08/26779-sonli xatiga muvofiq O'zbekistonning Kuala-Lampurdagi elchixonasi va Malayziyaning Al-Buxoriy Xalqaro universiteti prezidenti A. Tajuddin o'rtasida bo'lib o'tgan onlayn uchrashuv natijalari doirasida Malayziyaning Al-Buxoriy xalqaro Universiteti tomonidan o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarida tahsil olish uchun stipendiya tanlovini e'lon qiladi.

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'qish 2022-yil oktyabr oyidan boshlanadi va ushbu stipendiya kam ta'minlangan oilalar qatoridan iqtidorli yoshlarga taqdim etiladi.

Nomzodlar hujjat topshirish vaqtida 18-22 yosh oralig'ida, uylanmagan ( turmushga chiqmagan) bo'lishi kerak. Ular litsey bitiruvchilari yoki OTMning yosh xodimlari orasida tavsiya etilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Mazkur stipendiya ta'lim, yashash va ovqatlanish kabi harajatlarni o'z ichiga oladi. Qolgan harajatlar, ya'ni aviachipta (borish va kelish), talabalik vizasi va ro'yxatdan o'tish uchun to'lov hamda qaytarib beriladigan garov puli talaba tomonidan qoplanishi ko'zda tutilgan.

Tavsiya etilgan nomzod mustaqil ravishda, talabnomani universitet veb saytida ( <https://aiu.edu.my/admissions/> ) to'ldirishi, Al-Buxoriy xalqaro universiteti bilan bog'lanishi va mazkur universitetning barcha kirish tartiblaridan on-line tarzda o'tishi kerak.

Al-Buxoriy xalqaro universiteti o'qish shart sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bilan <https://www.aiu.edu.my/> veb saytida tanishish mumkin.

**Hujjat topshirish muddat** -2022 -yil iyul oyigacha.

Ushbu tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilganlarning ro'yxatini Tashqi ishlar vazirligi orqali tshkilotchilarga yuborish uchun 2022-yil 1- maygacha Vazirlikning Xalqaro Aloqalar boshqarmasi elektron manziliga ( [xab@edu.uz](mailto:xab@edu.uz) ) yuborishingizni so'raymiz. Yuborilayotgan xat "Al-Buxoriy stipendiyasi" deb nomlanib, unda vazirlik xatining chiqish raqami ko'rsatilishi kerak.